

## ZAMONAVIY MUSIQA O'QITUVCHISI NING PEDAGOGIK MULOQATI VA UNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHMIYATI

Nizomiy nomidagi TDPU  
“Musiq madaniyati” fakulteti o'qituvchisi  
Jurakulova Nilufar Faxriddinovna

### Annotatsiya

Bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy musiqa o'qituvchisi qanday bo'lishi zarur? Musiqa o'qituvchisi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ faoliyat, pedagogik muloqot, salohiyat, tarbiya, texnologiya, ta'lim

Ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks etiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev shuni takidlab o'tganlarki, “Bizning asosiy maqsadimiz - yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish, ularning o'z qobiliyati va iste'dodini ro'yobga chiqarish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat”.<sup>1</sup> Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Shunday ekan, maktabda ishlaydigan har bir o'qituvchining eng asosiy vazifasi ijodiy izlanuvchan, mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ega yoshlarni aniqlash, ular bilan alohida shug'ullanish va iste'dodlarni rivojlantirib borish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqishdan iboratdir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan milliy dasturni ro'yobga chiqarish bosqichlari har jihatdan ilmiy asoslab berildi va uning barcha bosqichlarida “o'quv-tarbiyaviy jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash” muhim vazifalardan biri sifatida belgilandi. Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. [Erkin farovon](#), demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. 2016.

munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu borada ilg'or pedagogik tajribalami tahlili hamda taniqli olimlar A.S. Makarenko, V.A. Suxomlinskiy muloqotni pedagogik ta'siming ajoyib vositasi sifatida ta'riflab, insonlararo muloqotni ta'minlovchi eng muhim va nozik faoliyat ekanligini aytadi, A.N.Leontev pedagogik muloqotning tarbiyaviy-didaktik ahamiyatini baholab o'z fikrlami bildirgan.

Kasbiy-pedagogik muloqot deganda, musiqa o'qituvchisi va ta'lim-tarbiya jarayoni obyektlarining o'zaro hamkorlik tizimi tushuniladi, uning asosiy faoliyat mazmuni o'zaro axborot almashish, shaxsni bilish, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish sanaladi. Musiqa o'qituvchisi bu jarayonni faollashtiruvchisi sifatida maydonga chiqadi, uni tashkil etadi va boshqaradi.<sup>2</sup>

A.N.Leontev pedagogik muloqotning tarbiyaviy-didaktik ahamiyatini baholar ekan, quyidagi fikrlami bildiradi: faol pedagogik muloqot - o'qituvchining, umuman olganda pedagogik jamoaning ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni bilish va o'rganish kaliti va o'quv faoliyatining ijodiy xarakteri, o'quvchi shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan, ta'lim-tarbiyada maqbul bo'lgan emotsional muhitni ta'minlovchi, jumladan, ruhiy psixologik to'siqlaming paydo bo'lishini oldini oladigan, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to'g'ri yo'lga solib boshqarishni ta'minlaydigan va o'quv tarbiyaviy jarayonda o'qituvchining o'z pedagogik mahoratidan oqilona foydalanishi uchun imkoniyatlar yaratadigan muhim vositadir.<sup>3</sup>

Pedagogik faoliyatda muloqot o'quvchilarga zamon talablari asosida ta'lim berish vazifalarini hal qilish vositasi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta'minlash tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Ilg'or pedagogik tajribalami tahlili hamda taniqli olimlar A.S. Makarenko, V.A. Suxomlinskiy va boshqalarning pedagogik faoliyatini o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin, aynan o'quvchilar bilan musiqa o'qituvchisi muloqotining pedagogik ta'sir vositasi nihoyatda beqiyos, muloqotni pedagogik mahoratning eng muhim birlamchi vositasi sifatida chuqur egallaganlik ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini har tomonlama oshirishni ta'minlaydi.<sup>4</sup> A.S. Makarenko muloqotni pedagogik ta'siming ajoyib vositasi sifatida ta'riflab, insonlararo muloqotni ta'minlovchi eng muhim va nozik faoliyat ekanligini aytadi.

<sup>2</sup> A.Xoliqov – Pedagogik mahorat: Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -T.: 2011.

<sup>3</sup> Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. — М.: Политиздат, 1975,- 304 с

<sup>4</sup> Makarenko A.S. Ta'lim-tarbiya tajribasidan ba'zi bir xulosalar.- T.: O'qituvchi, 1988,- 139 b

Pedagogik muloqot - shunchaki ijtimoiy-psixologik, pedagogik yoki kommunikativ hodisa emas, awalo kasbiy axloqiy fenomendir (hodisa). Jamiyatda axloq normalariga qat'iy rioya qilish hamda pedagogik vositalarning ilg'or jarayonlarini amaliy hayotga keng tatbiqi uchun o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlik texnologiyalarini mukammal egallash lozim. Shunday «texnologiya»larning mavjudligini pedagogik tadqiqotlar isbotlab berdi.<sup>5</sup>

O'qituvchining kommunikativ faoliyati maqsadli faoliyatga nisbatan ko'pincha ikkilamchi xarakterga ega bo'ladi, pedagogik mehnatning o'ziga xosligi ham aynan kommunikativ faoliyat uning asosini tashkil etishidan iborat ekanligidadir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilar ongiga muloqot asosida milliy qadriyatlar va ma'naviy madaniyatni shakllantirish, musiqa o'qituvchisi va o'quvchining o'zaro muloqotini hozirgi zamon pedagogik talablari asosida mukammal tashkil etilishini ta'minlaydi. Zamonaviy pedagog o'z fanini chuqur bilishi, pedagogik mahoratga ega bo'lishi bilan birgalikda chet tillarini ham bilishi lozim. Masalan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi ham ingliz tilini hech bo'lmaganda mukammal darajada bo'lmasa ham qisman bilishi kerak. Sababi boshlang'ich sinflarning yangi nashrdan chiqqan matematika darsliklarida o'lchov birliklari ingliz tilida kiritilgan. Musiqa o'qituvchisi bolaga buni tushuntira olishi kerak, buning uchun albatta ingliz tilidan xabardor bo'lishi lozim. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari va smart doskalar bilan ishlash uchun ham til bilimdonligi pedagog uchun zarur.

O'qituvchida shuncha xislatlarni ko'rgan o'quvchi hayotga o'z ustozining ko'zi bilan qaraydi va hayotni oq-qora rangda emas, serjilo ranglarda ko'rib, unga muhabbat qo'yadi. Shu go'zal hayotning, millatning chiroyiga o'z hissasini qo'shish uchun ulg'ayadi. Eng asosiysi, u o'quvchiligidayoq shu jamiyat, shu millatga kerakman, degan ruhda kamol topadi. Bugungi g'ala-g'ovur dunyoda ustoz o'z so'ziga, o'z o'rniga, o'z obro'siga ega bo'lishi, yoshlarni yurtga otilgan har qanday toshlarga qalqon qilib tarbiyalashi shart. Musiqa o'qituvchisi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. [Erkin farovon](#), demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. 2016.
2. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. — М.: Политиздат, 1975,- 304

<sup>5</sup> Макаренко А.С. О воспитании. //Золотой фонд педагогики,- М.: Школьная пресса, 2003.- 192 с

3. Makarenko A.S. Ta'lim-tarbiya tajribasidan ba'zi bir xulosalar.- T.: O'qituvchi, 1988,- 139 b
4. Макаренко А.С. О воспитании. //Золотой фонд педагогики,- М.: Школьная пресса, 2003.- 192
5. A.Xoliqov – Pedagogil mahorat: Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -T.: 2011.
6. Rejаметова, N. (2023). ON THE INTERACTION OF TRADITIONS AND INNOVATIONS IN PRESCHOOL MUSIC EDUCATION AND EDUCATION.
7. Режаметова, Н. И. (2022). НАРОДНЫЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ: ТРАДИЦИИ И СОВРЕМЕННОСТЬ В ДОШКОЛЬНОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ВОСПИТАНИИ. In Наука. Культура. Искусство: актуальные проблемы теории и практики (pp. 221-226).
8. Raxmonberdiyeva, S. M. (2020). OQUVCHILAR ESTETIK DIDINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA TINGLASH FAOLIYATINING TUTGAN ORNI. Интернаука, (1-3), 67-69.
9. Raxmonberdiyeva, S. M. (2021). MUSIQA DARSLARIDA BOLALARNING MUSIQIY IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARADORLIGI. Интернаука, (19-6), 15-16.
10. Shukurova, N. G. (2021). COMPUTER TECHNOLOGY IN MODERN MUSIC EDUCATION. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 1086-1089.
11. Shukurova, N. Pedagogical and Psychological Fundamentals of Teacher Professional Competence. *JournalNX*, 679-681.